

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBBLAR VA ULARINING TASHKIL QILINISHI

NON-CASH PAYMENTS AND THEIR ORGANIZATION

*Andijon davlat texnika instituti
“Muhandislik Iqtisodiyot va boshqaruv”
fakulteti Bank ishi va audit yo‘nalishi “116”-
guruh 4-kurs talabasi*

Komilov Omadjon Xursandbek o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblarning ahamiyati, shakllari va tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek, hisob-kitoblarni tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar va elektron to‘lov tizimlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: naqd pulsiz hisob-kitob, elektron to‘lov, hisobvaraqlar, bank tizimi, to‘lov shakllari,

Abstract: This article highlights the significance, forms, and principles of non-cash settlements under market economy conditions. It also provides insights into regulatory documents governing payments and the role of electronic payment systems.

Keywords: non-cash settlements, electronic payments, bank account, banking system, payment forms,

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul aylanishining to‘g‘ri va aniq tashkil etilishi xalq xo‘jaligining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tovar-pul munosabatlarining samarali yuritilishi naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar ko‘proq banklar orqali, ya’ni naqd pulsiz shaklda amalga oshirilmoqda.

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLARNING MOHIYATI

Naqd pulsiz hisob-kitoblar – bu xo‘jalik subyektlarining o‘zaro majburiyat va talablarini naqd pul ishlatmasdan, hisobvaraqlar orqali mablag‘larni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar majmuasidir. Bu tizim yalpi ijtimoiy mahsulot aylanishining 80–90 foizini tashkil etadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar ikki guruhga ajratiladi:

- Tovar operatsiyalari bo‘yicha: tovarlar, xizmatlar va qurilish operatsiyalari hisob-kitoblari.
- Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha: soliqlar, kredit foizlari, byudjetdan tashqari to‘lovlar va boshqalar.

Birinchi guruhga tovarlarni sotish, xizmatlar ko‘rsatish va kapital qurilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi. Ikkinchi, moliyaviy majburiyatlar, guruhiga esa byudjetga to‘lovlar, ya‘ni foydadan to‘lanadigan soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to‘lanishi, sug‘urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqd pulsiz aylanish pulli munosabatlar ishtirokchilarining joylashuviga qarab bir shahar ichidagi va shaharlararo pul aylanishiga bo‘linadi. Bir shahar ichidagi pul aylanishi bir hisob markaziga qarashli banklar o‘rtasidagi hisob-kitoblar majmuini bildiradi. Shaharlararo pul aylanishi esa turli hisob markazlariga qarashli banklar o‘rtasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar yig‘indisidir. Lekin respublikamizda bank tizimining rivojlanishi, «elektron to‘lovlar» tizimiga o‘tish asosida hisob-kitoblarning tezligi va sifatining oshishi natijasida hisob-kitoblarda ishtiroq etuvchi sub’ektlarning joylashuviga qarab ikkiga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘lmay qoldi. Chunki hisob-kitoblarda katnashuvchi sub’ektlar qaysi hududda joylashganidan qat’iy nazar, to‘lovlar bir necha soatda, xattoki bir necha daqiqada o‘tkaziladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishda bir qator tamoyillarga asoslaniladi.

Bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Har bir xo'jalik sub'ekti o'z pul mablag'larini banklarda ochilgan depozit hisobvaraqlarda saqlashlari lozim. Korxona va tashkilotlar o'zaro hisob-kitoblarini bevosita bankdagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishlari shart. Qaysi bankda hisobvaraq ochishni mijozlarning o'zlari tanlaydilar.

2. Hisob-kitoblar to'lovchining roziligi bilan yoki uning topshirig'iga asosan depozit hisobvaraqdagi mablag'i evaziga amalga oshiriladi. Korxona bank kreditidan foydalanish xuquqiga ega bo'lsa, to'lovlar bank krediti hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

3. To'lovlar belgilangan to'lovlar ketma-ketligi asosida bajariladi.

4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisob-kitob shakllarini mustaqil tanlashlari va uni shartnoma orqali mustahkamlab qo'yishlari mumkin.

5. Tovar etkazib beruvchi korxona hisobvarag'iga pul mablag'lari mazkur mablag'larining mol sotib oluvchi korxona hisobvarag'idan o'chirilgandan so'ng o'tkazib beriladi.

6. To'lovni kafolatlash maqsadida, etkazib berilishi lozim bo'lgan tovar yoki ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmat qiymatining 15 foizi oldindan to'langandan so'nggina tovarlar jo'natiladi yoki xizmatlar ko'rsatiladi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirishda yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarga amal qilinmas ekan, bu hisob-kitob munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

NAQD PULSIZ HISOB KITOBLARNI SHAKILLARI

Nizomga asosan naqd pulsiz hisob-kitoblar qonunda ko'zda tutilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi:

- To'lov topshiriqnomalari;
- To'lov talabnomalari;
- Akkreditivlar;
- Inkasso topshiriqnomalari;
- Tijorat banklarining hisob-kitob cheklari;

- Plastik kartochkalar bo'yicha hisob-kitoblar.

To'lovchi va mablag' oluvchi orasidagi hisob-kitoblar shakli shartnoma asosida belgilanadi. Hisob-kitob shakllari deyilganda, xuquqiy me'yorlarda ko'zda tutilgan, hisob-kitob hujjatining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mablag'larni mol sotuvchi korxona hisobvarag'iga o'tkazish va yozish usuli bilan bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlari tushuniladi.

ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Bank tizimining raqamli texnologiyalarga o'tishi, elektron to'lov tizimlarining joriy qilinishi hisob-kitoblarning tezligini oshirdi. Endilikda subyektlar joylashuviga bog'liq bo'lmagan holda bir necha daqiqada to'lovlarni amalga oshira oladi. Bu esa hisob-kitoblarning samaradorligini yanada oshirmoqda.

XULOSA

Naqd pulsiz hisob-kitoblar – bu zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, moliyaviy intizom va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ularning samarali tashkil etilishi uchun me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, bank tizimi bilan to'g'ri hamkorlik va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash muhim ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Omonov A., Qoraliyev T.M. *Moliya va moliyaviy boshqaruv asoslari*. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021. – 432 b.
2. Usmonov Yo., To'rayev A. *Davlat moliyasi*. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020. – 388
3. Karimov N.G'., Navro'zova K.N. *Banklarda buxgalteriya hisobi*. – T.: “Moliya”, 2012. – 320 b.
4. Hamidov A.X., Qurbonov Q.Q. *Moliyaviy menejment*. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 276 b.
5. “O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to'g'risida”gi Nizom.